

"Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki rezidentlari sanoat yarmarkasida o'z mahsulotlarini namoyish etdi

// 20 June 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-industrial-texnoparki-rezidentlari-sanoat-yarmarkasida-oz-mahsulotlarini-namoyish-etdi>



@chempark | www.chemparks.uz

"Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki rezidentlari Farg'ona shahrida bo'lib o'tayotgan tarmoqlararo sanoat yarmarkasida o'z mahsulotlarini namoyish etdi.



 @chempark | www.chemparks.uz

Farg'ona shahridagi Ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatida hududlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan "Tarmoqlararo hududiy sanoat yarmarkasi" bo'lib o'tdi.

"Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki rezidentlari - DHMT GLOBAL, ELEMERT, BCG GROUP, EASY860, NOVOPLAST, CHIRCHIK CHEMICAL QUALITY, BIONOVATIC, RHODIUM POLYMER, ZDRAVMEDTEX AZIYA o'z loyihalarini, sanoat yechimlarini taqdim etib, kimyo sanoati sohasidagi so'nggi yutuqlarni namoyish etdi.



 @chempark | www.chemparks.uz

Yarmarka turli tarmoq korxonalari o'rtasida tajriba almashish, hududlararo hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish va yangi hamkorlar topish uchun platformaga aylandi.



